Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari.....	835
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Обзор по теме Современные системы управления возбуждение синхронных машин и перспективы их развития (Формирования законов управления).....	841
Алиев Абдор Мураткулович	
O'zbekistonda turizm va servis soxasida davalt- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbas Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abdulhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	
Using integrated marketing communications (IMC) in business management	1002
Ziyayeva M.M.	
Xorijiy mamlakatlarda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalari va ulardan o'zbekistonda foydalanish istiqbollari.....	1006
Jaxongirov Ilindorjon Jahongirjon o'g'li	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржохон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoirabonu Abduvohobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуплаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'afar Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar.....	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati.....	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizm da raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field.....	1217
Sherkulov Shokhrukh Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abduxalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlar.....	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati.....	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	



IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR TUSHUNCHASI, UNING TARKIBI VA IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

Mahmudov Nurali Komilovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nuralimahmudov32@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotning real sektori tushunchasi, uning tarkibi milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va moddiy bo'lmagan xizmatlar ko'rsatadigan iqtisodiy sohalarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy tahlil va fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, real sektor, moddiy ne'matlar, moddiy bo'lmagan xizmatlar, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlari.

Abstract: The article presents scientific analysis and opinions on the concept of the real sector of the economy, its composition, its importance in the national economy, and the development of economic sectors that produce material goods and provide intangible services.

Key words: economy, real sector, tangible goods, intangible services, industrial sectors, agriculture, construction, transport, communications.

Аннотация: В статье представлены научный анализ и мнения относительно понятия реального сектора экономики, его состава, значения в национальной экономике, а также развития отраслей экономики, производящих материальные блага и оказывающих нематериальные услуги.

Ключевые слова: экономика, реальный сектор, материальные блага, нематериальные услуги, промышленные отрасли, сельское хозяйство, строительство, транспорт, связь.

KIRISH

Mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmonida ko'rsatilgan asosiy ustuvor vazifalarni bajarish ustuda katta ishlarni amalga oshirmoqda¹. Bunda 7 ta yo'nalish belgilangan bo'lib, uning uchinchi yo'nalishi bevosita "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" ga qaratilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori aynan, iqtisodiyotning bevosita barcha moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohalari ya'ni, u o'z ichiga sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa tarmoqlarini oladi.

Real sektor tarmoqlarini jadal rivojlantirish borasida tub burilish yasagan sanoatni barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>



raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrda "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish to'risidagi" gi PQ-397-sonli qarori qabul qilindi².

Talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan loyihalarning marketing tadqiqotlari, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish bilan bog'liq xarajatlarni jamg'arma mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilish tartibi belgilandi.

Iqtisodiyotning real sektori subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash-ish bilan bandlikni oshirish, import hajmini qisqartirish, inflyatsiyani jilovlash, aholi farovonligini ta'minlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning real sektor subyektlari tushunchasi, ularning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati Rossiyalik olimlar-Mnasakanyan A, Zemtsov S.P, Chepurenskiy A.Yu, Barinova V.A. va boshqa iqtisodchilarning ilmiy asarlarida chuqur tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida esa ushbu masalalar bo'yicha iqtisodchi olimlardan Artikov A, R.S. Muratov, I.A. Jalolova, Mahmudov E.X. va boshqalarning ilmiy ishlari e'tiborga loyiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning real sektori-bu milliy iqtisodiyotning moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi va moddiy bo'lmagan xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarini o'z ichiga olgan muhim tarkibiy qismidir. U yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning asosiy qismini shakllantiradi hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish, kelajakda farovonlik darajasini oshirish, shuningdek, iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotda eng ilg'or davlatlar safidan o'rin egallashi, bevosita real sektor doirasida ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Mamlakat iqtisodiyotining tayanch omillaridan biri bo'lgan real sektor ishlab chiqarish, bandlik, eksport hajmi va texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Aksincha, real sektorning zaiflashuvi iqtisodiy o'sish sur'atining sekinlashishiga yoki hatto inqiroz holatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois, hukumatlar tomonidan real sektorni rag'batlantirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda infratuzilmaviy rivojlanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda real sektor iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi bo'lishiga qaramay, uzoq yillar davomida turli muammolar bilan yuzlashmoqda.

Mamlakatimizda real sektor subektlarining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar ham mavjud. Jumladan:

- moliyaviy qiyinchiliklar va investitsiyalarning etishmasligi real sektorga tijorat banklar tomonidan taklif etilayotgan kreditlar foiz stavkalari baland va qisqa muddatli, investitsiyalar miqdori kam, real sektor korxonalarida soliqlar yukining og'irligi va byurokratik jarayonlar tufayli foyda olishda qiyinchiliklar;

- infratuzilma va texnologik qo'lloqlik real sektorda ko'pgina korxonalarning asosiy vositalari ma'naviy eskirgan, natijada mahsulot sifati va raqobatbardoshligi pasayadi, yo'llar, elektr tarmoqlari va internet aloqasining yetarli bo'lmashligi ishlab chiqarishni qiyinlashtiradi, elektr va gaz uzilishlari korxonalarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

- mehnat resurslari bilan bog'liq muammolar kasb-hunar ta'limi tizimi real sektor ehtiyojlariga javob bermaydi, natijada mutaxassislar kam, yaxshi mutaxassislar ish haqi pastligi yoki yaxshi sharoit yo'qligi tufayli xorijiy mamlakatlarga ketmoqda;

- raqobatdoshlikning pastligi energiya, xom ashyo va logistika xarajatlari tufayli mahalliy tovarlar import mahsulotlari bilan raqobatlasha olmaydi, ba'zi mamlakatlarda import soliqlari past bo'lib, mahalliy ishlab chiqarishni susaytirmoqda;

- byurokratik to'siqlarning mavjudligi litsenziya va ruxsatnomalar olishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrda "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish to'risidagi" gi PQ-397-sonli qaror <https://lex.uz/docs/-6696009>



- global iqtisodiy o'zgarishlar va ta'sirlar neft, metallar, don kabi resurslar narxining o'sishi yoki tushishi ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir qilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining real sektorini shakllantirish, uning tarkibini yangilash hamda korxonalarni rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish jarayonida davlatning roli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Real sektor aholining keng qatlamini ish bilan ta'minlagani bois ishsizlikni kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu sektor Yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning asosiy qismini tashkil etadi va mamlakat iqtisodiyotining tayanch negizini belgilaydi.

Real sektor tarmoqlari-oltin, rangli metallar, neft, gaz, paxta, mashinasozlik, meva-sabzavot mahsulotlari va boshqalar-orqali mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy davlatlardan valyuta tushumlari kelib tushadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, real sektor moddiy boyliklar va aktivlar yaratish orqali iqtisodiy inqirozlarga nisbatan barqarorlikni oshiradi. Uning rivojlanishi moliya, logistika, marketing kabi xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ham taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Aholining turmush darajasini yaxshilash, bandlikni kengaytirish, iste'mol tovarlari narxining barqarorligi, yangi infratuzilma obyektlarining yaratilishi hayot sifatining oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, real sektor hududlar aholisi o'rtasidagi daromadlar tafovutini kamaytiradi, erkin iqtisodiy zonalar va qishloq xo'jaligi markazlari viloyatlarning iqtisodiy rivojiga kuchli turtki beradi.

Real sektor subyektlari mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayveri bo'lib, ular nafaqat moddiy boyliklar ishlab chiqaradi, balki bandlik, eksport salohiyati va texnologik taraqqiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar real sektor samarali faoliyat yuritrsa, mamlakat iqtisodiy jihatdan barqaror va innovatsion taraqqiyotga erishgan davlatlar qatoriga kirishi mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda yirik soliq to'lovchilar asosan tog'-kon sanoati, neft-gaz, telekommunikatsiya va avtomobilsozlik sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar bo'lib, ular davlat byudjetining asosiy daromad manbaidir. Shuningdek, real sektorning rivojlanganligi xorijiy investorlar uchun ishonchli investitsion muhit yaratadi. Bunga Turkiya va Xitoyning qurilish hamda ishlab chiqarish sohalaridagi faol sarmoyalari misol bo'la oladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda real sektor rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- real sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, soliq imtiyozlari va foiz stavkalari past kreditlar berish;
- xorijiy investorlar uchun imtiyozli shartlar yaratish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalar va avtomatlashtirishni joriy etish, innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash;
- mehnat bozorini isloh qilish, kasb-hunar ta'limini real sektor subektlarining talab yuqori tarmoqlari ehtiyojlariga moslashtirish hamda malakali mutaxassislarga ish haqini oshirish;
- importni kamaytirish va eksportni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqarishni himoya qiluvchi soliq siyosati yuritish, eksportga yo'naltirilgan korxonalarga moliyaviy ko'mak berish, xorijiy mamlakat bozorlarida marketing tadqiqotlari o'tkazishda amaliy yordam berish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, real sektor subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) o'sishidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Real sektor iqtisodiyotning tayanch omili bo'lib, uning samarali faoliyati ishsizlik darajasini kamaytirish, eksport tushumlarini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va xalq farovonligini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.

Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, O'zbekiston real sektor subyektlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish yo'lida quyidagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir:

- qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun mavjud qayta ishlash korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash modernizatsiya qilish va yangilarini qurish, sifatli uzluksiz xomashyo yetkazib berish tizimini rivojlantirish;
- mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektori rivojlantirishdagi muammolari bartaraf etish tizimli yondashuv va uzoq muddatli strategiyalarni talab qiladi;
- texnologik yangilanishlar, infratuzilmani yaxshilash va moliyaviy tizimni isloh qilish, real sektorning rivojlanishi;
- sanoatning yetakchi tarmoqlarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash;
- energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish;
- yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;



- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish;
- shuningdek mahsulotlarni eksportga chiqarishning zamonaviy talablarga mos savdo-logistika infratuzilmasini jadal rivojlantirish muhim masalalardan biridir.

Iqtisodiy tizimlarga mos ravishda iqtisodiyotning real sektor korxonalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli kreditlar, grantlar, subsidiyalar va boshqa moliya-kredit rag'batlantiruv vositalarini taqdim etish real sektorning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-dekabrda "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi huzurida sanoatni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etish to'risidagi" gi PQ-397-sonli qaror <https://lex.uz/docs/-6696009>
3. Мнацаканян А. Г. Финансовые и денежно-кредитные методы регулирования экономики: Учебно-методическое пособие по изучению дисциплины для студентов направления подготовки. -Калининград: Изд-во ФГБОУ ВО "КГТУ", 2022. -58 с. <https://klgtu.ru/vikon/sveden/files/38.04.08>
4. Земцов С. П., Чепуренко А. Ю., Барина В. А. Новая предпринимательская политика для России после кризиса // Вопросы экономики. -2020. -№ 10. -С. 44-67. <https://publications.hse.ru/articles/409676882>
5. Artikov A. Sanoat iqtisodiyoti: Darslik.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2014. – 220 b.
6. Maxmudov E. X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2015. -170 b.
7. Norqobilov N. Mintaqalar investitsion muhitiga ta'sir etuvchi omillarni baholash // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. -2024. -№ 6/2. -Xiva sh.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>